

BUXORO XONLIGIDA YER EGALIGI SHAKLLARI**Ergasheva Mohira Nosirjon qizi**

Fargʻona davlat universiteti 2-bosqich talabasi

+998970430326

ergashevamohira0006@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro amirligidagi yer egaligi tizimi tahlil qilinadi. Tadqiqot amirlikdagi yer egaligining huquqiy asoslari, turli yer toifalari — davlat (amlok), xususiy (mulk) va vaqf yerlari — hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini oʻrganadi. Xiroj, ushr soliqlari va ijarachilik tizimining amirlik iqtisodiyotiga ta'siri koʻrsatilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, yer egaligi, amlok, mulk, vaqf, xiroj, tanho, suyurgʻol, ijarachilik, shariat.

Аннотация. В данной статье анализируется система землевладения в эмирате Бухара. Исследование рассматривает правовые основы землевладения в эмирате, различные категории земли — государственную (собственность), частную (пожертвования) и вакфские земли — и их социально-экономические последствия. Показано влияние хираджа, десятины и системы аренды на экономику эмирата.

Ключевые слова: эмират Бухара, землевладение, собственность, имущество, пожертвования, хирадж, танхо, суйургол, аренда, шариат.

Abstract. This article analyzes the land ownership system in the Bukhara emirate. The study examines the legal basis of land ownership in the emirate, various categories of land — state (property), private (endowment) and waqf lands — and their socio-economic consequences. The impact of the khiraj, tithe taxes and the tenancy system on the economy of the emirate is shown.

Keywords: Bukhara emirate, land ownership, property, property, endowment, khiraj, tanho, suyurgol, tenancy, Sharia.

KIRISH

O'rta Osiyoda, jumladan Buxoro amirligida yer egaligi tizimi tarixiy va ijtimoiy jihatdan muhim o'rin tutgan. Yer — nafaqat iqtisodiy boylik, balki siyosiy hokimiyat va ijtimoiy mavqeni belgilovchi asosiy omil edi. Amirlikdagi yer munosabatlarini o'rganish — davlatning ichki tuzilmasi, soliq siyosati, diniy muassasalar bilan munosabati va dehqon ahvolini yaxlit tushunishga imkon beradi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, yer egaligi masalasi xonliklar davrining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini, shu jumladan amirlikning Rossiya imperiyasiga qarshilik ko'rsatish imkoniyatlarini belgilab bergan. Maqolaning maqsadi — Buxoro amirligidagi yer egaligi shakllarini tizimli tahlil qilish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yoritishdan iborat.

O'rta Osiyoda yer egaligi tartibi, asosan, shariat tartib-qoidalariga asoslangan. Buxoro amirligida esa shariat normalari mahalliy urf-odat va an'analar bilan aralashib ketgan. Yerga egalik qilish, undan foydalanishga ruxsat berish davlat boshlig'i — amir ixtiyorida bo'lib, bekliklarda ushbu vakolatni viloyat hokimlari — beklar amalga oshirganlar.

M. A. Abdurayimov o'z tadqiqotlarida Buxoro amirligidagi yerlarni quyidagi guruhlariga ajratgan¹.

Davlat yerlari — Amlok, mamlaka, araziy podshohiy, mulki devon va hokazo

Xususiy yerlar — Mulk, mulki xurri xolis, yorliq mulklari

Imtiyozli soliq olinadigan yerlar — Mulki ushr va daxyan

Vaqf yerlari — Mulki vaqf

Boshqa yerlar — Ko'chmanchi qabilalar yerlari (yurtlar)

Shartli topshiriladigan yerlar — darbost (darubost)

Davlat (amluk) yerlari. Ekiladigan yer maydonlarining asosiy qismini davlat yerlari tashkil qilgan. Amir eng katta yer egasi hisoblangan. Davlat yerlarini rasman sotish, hadya etish hamda vaqfga berish ta'qiqlangan bo'lsa-da, bunga doim ham

¹Abdurayimov, M. A. Ocherki agrarnyx otnosheniy v Bukharskom xanstve v XVI — pervoy polovine XIX veka. Toshkent: Fan, 1966. — 145-bet.

amal qilinmagan. Davlat yerlari bo'sh yerlarni — qamishzorlar, toshloq, to'qayzor, tog'oldi hududlarini — ozlashtirish hisobiga ko'paytirilgan. Bunday yerlarni o'zlashtirgan shaxslar bir necha yil soliqlardan ozod etilgan, keyin esa belgilangan tartibda soliq to'laganlar. Bundan tashqari, davlat yerlari hukmdor oldida katta gunoh qilgan yirik yer egallaridan musodara qilingan yerlar hisobidan ham to'ldirilgan. Davlat yerlari soliqlarni “xiroj” tariqasida yer rentasini tolagan dehqonlarga foydalanish uchun berilgan². Davlat yerlarining boshqa bir qismi esa hukmron sulola a'zolariga va yirik davlat mansabdorlariga davlat oldidagi xizmatlari evaziga suyurg'ol shaklida in'om etilgan. Amir Nasrullo davridan boshlab yer egaligining tanho shakli tarqaldi. Nasrullo o'ziga bo'ysunmagan amaldorlar va urug' oqsoqollarining yerlarini musodara qilib, bunday yerlarni vaqtincha egalik qilish huquqi bilan o'z tarafdorlariga hadya (tanho) qilgan. Tanhodor yerga emas, mansabining darajasiga qarab shu yerdan olinadigan soliqning ma'lum qismiga egalik qilardi. Eng kichik tanho yeri 36–60 tanobni tashkil etgan. **Xususiy (mulk) yerlar**. Mulk yerlariga egalik qilish quyidagi huquqiy asoslarda vujudga kelgan: yerlar amir tomonidan taqdim etilganda; tashlandiq yerlarni o'zlashtirishdan; amlok yerlarining ma'lum bir qismini xususiy mulk sifatida ajratish huquqi orqali. Buxoro amirligida mulk yerlarining uch turi mavjud bo'lgan. **Mulki xurri xolis** — mulk yerlarining eng mukammal shakli bo'lib, bu turdagi yerlar barcha soliq va yig'implardan ozod etilgan. Davlat xizmati bilan bog'liq edi — urushlarda jasorat ko'rsatgan yoki hukmdorning alohida topshiriqlarini bajarishda namuna ko'rsatgan shaxslarga berilgan. Bunday yerga ega bo'lgan shaxslarga maxsus yorliqlar berilgan. **Mulki xiroj** — yer egalari tomonidan xiroj solig'i to'lanadigan yerga nisbatan mulk shakli. Rasman hosilning uchdan biri miqdorida soliq belgilangan bo'lsa-da, amirlikning har bir hududida o'rnatilgan tartib va urf-odatlariga ko'ra, soliq miqdori hosilning uchdan biridan to beshdan birigacha bo'lgan. **Mulki ushr** — ushr solig'i to'lanadigan yer turi. Bunda olingan hosilning o'ndan bir (1/10) qismi miqdorida

² Bartold, V. V. *Istoriya kulturnoy jizni Turkestana*. Moskva: AN SSSR, 1927. — 98-bet.

soliq undirilgan. Buxoro amirligida faqatgina mulki xurri xolis yerlaridan soliq olinmagan, qolgan barcha yer egaligi shakllaridan soliq olingan. Yirik xususiy yer egalari bevosita xo'jalik yuritmasdan, o'z yerlarini chorakorlik va mardikorlik asosida ijaraga berishgan. **Vaqf yerlari** — masjid, mozor, xonaqoh, maktabxona, madrasa va maqbaralar uchun ajratilgan yerlar edi. Vaqf yerlari asosan diniy muassasalarga yer maydonlarini meros qoldirish hamda xayr-ehson qilish natijasida vujudga kelgan. Masjid, madrasa, qabristonlarning asosiy sarf-xarajatlari, shuningdek, talaba, mudarris hamda mutavallilarga beriladigan nafaqa va maoshlar vaqf yerlaridan olinadigan daromad hisobidan qoplanar edi. Vaqf mulkini mutavalli tasarruf etishi belgilab qoyilgan. Mutavalli, asosan, vaqf egalari avlodlaridan tayinlangan bo'lib, u vaqf hujjatlariga asoslanib foydani taqsimlab chiqqan. Amirlikda vaqf yerlarini sotish va bunday yerlardan soliq olish taqiqlangan bo'lsa-da, manbalar va hujjatlar bunga amal qilinmaganini ko'rsatadi. Amirlikda vaqf yerlari Xiva va Qo'qon xonliklari singari ruhoniylarning davlat va jamiyatdagi rolini iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlagan. Buxoro amirligida "vaqfi avlod" deb atalgan xususiy (oilaviy) vaqflar alohida o'rin tutgan. Vaqfi avlod yerlari meros tariqasida bir urug'ning a'zolariga o'tib keladigan yer toifasiga kirgan³. Vaqfi avlod mulklarini tashkil qilgan shaxslar o'z merosxo'rlariga vaqfdan keladigan daromadlarning ma'lum qismini masjid yoki madrasalar qurishga sarflashni vasiyat qilib qoldirganlar. **Yer o'lchovi va sug'orish tizimi**. Ekin ekiladigan yer maydonlari tanob (1 tanob — 0,25 gektarga yaqin) bilan o'lchangan. Yerlarning bo'linishi, asosan, sug'orish inshootlari bilan bog'liq bo'lgan⁴.

1. 100 ming tanob yer — tuman deb yuritilgan
2. 50 ming tanobli yer — hazora, uning yarmi — nim hazora
3. 10–15 ming tanobli yer — "falon daryo abhori" deb atalgan
4. 400 tanobli yer aholi bilan band bo'lsa — qorya deyilgan

³ The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. Berkeley: University of California Press, 1998. 67-bet

⁴ Khalid, A. (1998). The politics of Muslim cultural reform: Jadidism in Central Asia. University of California Press. 120- bet

5. 300 tanobli yer aholidan qat'i nazar — marza deb ajratilgan
6. Aholi yashaydigan punkt — baland deyilgan

Ijarachilik tizimi va dehqon ahvoli. Buxoro amirligi aholisining asosiy qismini, ya'ni 85 foizini dehqonlar tashkil qilgan. Bu doimiy sur'atda yer taqchilligi muammosini keltirib chiqargan. Natijada kam yerli va yersiz dehqonlar boylarning yerlarini ijaraga olishga majbur bo'lishgan. Beklik va amlokдорliklarda yerni ijaraga berish sharti bir xil bo'lmagan. Ba'zi amlokдорliklarda ijaradorlar ijaraga bergan yerdan tashqari urug'ni ham berib, buning evaziga hosilning 1/2 qismini olgan⁵. Ba'zi hollarda mulkdor ijarachiga urug', ot yoki ho'kiz bermagan — ijarador o'zining mehnat quroli bilan yerga ishlov bergan. Ijarador yollanma ishchilar yordamida ariqlarni tozalagan hollarda esa hosilning 1/3 qismini olgan. Ijarachilar ko'p hollarda olgan yerlariga o'zlari to'la ishlov bermasdan, uni ma'lum shartlar asosida mayda ijarachilarga berishga majbur bo'lishgan. Bu holat amirlikdagi iqtisodiy munosabatlarning murakkab va ko'p qatlamli xarakterini ko'rsatadi.

Xulosa

Buxoro amirligidagi yer egaligi tizimi murakkab va ko'p qatlamli tuzilmaga ega bo'lgan. Shariat qoidalari bilan mahalliy an'analarning qo'shilishi natijasida shakllangan bu tizimda davlat (amlok), xususiy (mulk) va vaqf yerlari o'z huquqiy maqomiga ega bo'lgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki: birinchidan, yer egaligi amirlikda siyosiy hokimiyat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan — amir eng katta yer egasi sifatida butun yer munosabatlarini nazorat qilgan. Ikkinchidan, vaqf yerlari tizimi ruhoniylarning iqtisodiy va siyosiy ta'sirini mustahkamlagan omil sifatida namoyon bo'lgan. Uchinchidan, dehqon aholisining 85 foizdan iboratligi va yer taqchilligi ijarachilik tizimining rivojlanishiga zamin yaratgan.

Kelgusi tadqiqotlarda Buxoro amirligi yer tizimini Xiva va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlil qilish hamda yer munosabatlarining xonliklarning Rossiya tomonidan bosib olinishiga ta'sirini o'rganish tavsiya etiladi.

⁵ Sagdullayev, A., Aminov, B., Mavlonov, U., & Norqo'ziyev, S. *O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti*. Toshkent: Akademiya, 2000. — 212-bet.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdurayimov, M. A. (1966). Ocherki agrarnyx otnosheniy v Bukharskom xanstve v XVI — pervoy polovine XIX veka. Fan.
2. Sagdullayev, A., Aminov, B., Mavlonov, U., & Norqo'ziyev, S. (2000). O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. Akademiya.
3. Bartold, V. V. (1927). Istoriya kulturnoy jizni Turkestana. AN SSSR.
4. Ergashev, B., & Norqo'ziyev, S. (2015). O'zbekiston tarixi. Akademiya.
5. Khalid, A. (1998). The politics of Muslim cultural reform: Jadidism in Central Asia. University of California Press.
6. Uzpedia.uz. (2023). Buxoro xonligi. <https://uzpedia.uz/pedia>